

## RESPUBLIKAMIZNING BARCHA TURAR JOY MINTAQALARIDA GELMINTLARNING PROFILAKTIKASI VA EPIDEMIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLARINI ZAMONAVIYLASHTIRISH

*Nomozboyeva Maftuna Abduhamid qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Gigiyena kafedrasida assistenti*

*[maftunanomozboyeva@gmail.com](mailto:maftunanomozboyeva@gmail.com)*

*Abdurahmonova Dilnoza Komil qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi*

*4-bosqich talabasi*

*[dilnozaabdurahmonova574@gmail.com](mailto:dilnozaabdurahmonova574@gmail.com)*

*Normurodova Hulkaroy Furkatjonovna*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi*

*4-bosqich talabasi*

*[hulkaroynormurodova8@gmail.com](mailto:hulkaroynormurodova8@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda yashovchilarda gelmintlarning keng tarqalib borayotgan hamda aziyat chekib kelayotgan yashovchilar uchun zamonaviy profilaktik choralarini va gelmintlar tarqalishida zamonaviy epidemiyani oldini olishga qaratilgan say harakatlar keng yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** gijjalar, gelmintlar, sanitariya-targ'ibot, zararlanish, chora tadbirlar, epidemiyani oldini olish, profilaktik chora.

**Mavzuning dolzarbligi:** Gelmintozlarga qarshi muvaffaqiyatli profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda aholining madaniyati va turmush darajasini yanada oshirish katta ahamiyatga ega.

Ushbu qatiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi. Aholining turli qatlamlari va ayniqsa bolalar o'rtasida sanitariya-targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish. Profilaktik tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirish uchun keng jamoatchilik va mahalla faollarini jalb etish.

Shaxsiy gigiyena tadbirlariga qatiy rioya qilish. Parazitologiya sohasi bo'yicha shifokorlar, o'rta va kichik tibbiyot xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish. Rejali ommaviy tekshiruvlarda gimenolepidozlar bilan kasallangan bemorlarni faol aniqlash va ularni davolash. Invaziya tarqalishida asosiy rol o'ynaydigan aholi guruhlari orasida bemorlarni aniqlash. Bemorlarni davolash jarayonida tashqi muhitni ularning najasi va boshqa biologik ajratmalari bilan zararlanishiga yo'l qo'ymaslik. Har doim uzluksiz ravishda gelmintozlarning yuqish mavsumini, gelmintozlarning ko'plab nobud bo'ladigan muddatlarini aniqlash.


Aholini kanalizatsiya va toza ichimlik suvi tizimi bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini yanada oshirish. Jamoat tashkilotlari, bog'lar, sayilgohlar, hiyobonlar sanitariya gigiena talablariga javob beradigan hojatxonalar qurish, har bir hovlida axlat qutilarini o'rnatish va ularni doimiy ravishda tozalashga, chiqindilarni vaqtda olib ketilishiga erishish. Hojatxonalarda o'rindiqlar, devorlar va pollarni najas qoldiqlaridan doimiy ravishda tozalash. Kanalizatsiya mavjud bo'lmagan hojatxonalarda o'ralar, pollar va o'rindiqlarni zararsizlantirish.

**Tadqiqot maqsadi.** Mamlakatimizning barcha turar joy mintaqalarida gelmintlarning profilaktikasi va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarini zamonaviylashtirish.

**Tadqiqot materiallari.** O'zbekiston Respublikasidagi Sanitariya Epidemiologiya Osoyishtalik va Jamoat Salomatligi Xizmati Parazitologiya bo'limidagi gelmintozlar bilan kasallanishi bo'yicha rasmiy hisobotlar va epidemik o'choqlarida o'tkazilgan epidemiologik tekshiruv natijalarining ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ilmiy ish bajarilishida epidemiologik va statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Bizning mintaqamizda gelmintozlar bo'yicha epidemiologik holatni to'liq barqaror va quvonarli deb ayta olmaymiz. Bugungi kunga kelib gelmintozlar bilan kasallanishni oldini olish uchun o'tkazilayotgan chora-tadbirlar va Butun Jaxon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti hamda YuNISEF tomonidan ishlab chiqarilgan va amaliyotga tadbiiq qilingan "Gijjadan holis bolalar" amaliy dasrturi va butun jaxonda bepul tarqatilishi yo'lga qo'yilgan gumanitar tizimi bo'yicha berilgan preparatlar o'z tarkibiga ko'ra ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan va o'z samaradorligini namoyon etayotgan bo'lsa ham uni yetarli darajada deb hisoblab bo'lmaydi. Ushbu holatni O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchilar orasida kasallanishning yillar o'tgani sayin turg'un holatda belgilab borilayotganligi, uning juda ko'p hollarda surunkali tus olishi va shundan so'ng noxush asoratlarga olib kelayotganligi yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonda gelmintozlarning tarqalganlik darajasi turli xil bo'lib ular quyidagicha taqsimlangan, rasmiy axborotlarga qaraganda, 2018 yilda respublikada 7649651 kishi gelmintozlarga tekshirilgan bo'lib, shulardan 264807 (3,5%) nafari gelmintozlar bilan kasallanganlar (1-rasm). Shulardan 81% enterobioz, 17,3% gimenolepidoz, 2% askaridozlar bilan zararlangan.



**1- rasm. O‘zbekiston Respublikasida gelmintozlar bilan kasallangan bemorlarning kasallik turlari bo‘yicha taqsimlanishi**

Kasallik ko‘rsatkichining 2022-2023 yillarda keskin kamayishiga sabab, 2020 yil aholi orasida koronavirus kasalligining tarqalganligi va COVID-19 pandemiyasi tufayli mamlakatimiz aholisi pandemiya sababli epidemyaga qarshi profilaktik qoidalariga rioya etishi, uyda bo‘lishi, jamoat joylariga, bog‘cha va maktablarga bormasdan sanitariya-gigiena qoidalariga qat’iy amal qilish turmush tarzini o‘ziga va oilasiga chuqur singdirganligi 2022-2023 yillarda kopgina kasalliklarning ayniqsa havo-tomchi kontakt yo‘li bilan yuquvchi yuqumli infeksiyon hamda parazitarni kasalliklar kamayganligi kuzatildi.

### **GELMINTLARNING PROFILAKTIKASI VA EPIDEMIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLARI**

1. Bemorlarni erta aniqlab olish hamda ularni davolash. Ushbu o‘rinda quyidagi toifaga kiruvchi guruhlariga alohida e‘tibor beriladi: maktab yoshigacha bo‘lgan uyushgan va uyushmagan aholi hamda bolalar, bolalar bog‘chalariga, bolalar uylariga, maktablarda taxsil olayotganlarga, oromgohlarga qabul qilinayotgan bolalar, bolalar jamoalari xodimlari, ovqatlanish muassasalari xizmatchilari, kasallik aniqlangan oila a‘zolari. Bolalar bog‘chalari va xonadonlarda gimenolepidoz bilan kasallangan bemorlarni alohida guruhlariga ajratish. Ushbu gelmintozlar bilan kasallanib o‘tgan bolalarni ikki yil muddatda dispanser kuzatuvidan o‘tkazish.

2. Bolalar jamoalarida sanitariya-gigiena qoidalari va ko‘nikmalari bo‘yicha har kunlik tartibni joriy qilish. Maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari va yashash joylarida sanitariya holatining talab va tashkil qilish asoslarini yuqori darajasida bo‘lishini ta‘minlash. Buning uchun har kuni nam usul bilan tozalashni amalga

oshirish, bolalarni shaxsiy tuvaklar (gorshok) bilan ta'minlash, ularni issiq suv bilan zararsizlantirish lozim bo'ladi. Dezinfeksiya tadbirlarini bajarish uchun hozirgi tibbiyot amaliyotida qo'llanilayotgan yangi zamonaviy dezinfeksiyalovchi moddalardan ham foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Degelmintizatsiya o'tkazilishidan bir kun avval bolalarni yuvintirish, ichki kiyimlar va choyshablarini o'zgartirish, xonalarni tozalash tavsiya etiladi. Bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlarini quyida sanab o'tilgan usullardan birortasidan foydalangan holda zararsizlantirish zarur bo'ladi: 1) qaynoq suv bilan ishlov berish;

2) kvarts lampalar bilan yarim soat muddatda nurlantirish;

3) issiq havo bilan quritish (issiq havoli changyutgichning ingichka shlangiga kiydirilgan maxsus qurilmada hosil qilinadi).

Davolanish vaqtida ajralayotgan parazitlar va najasga issiq qaynoq suv bilan ishlov berish, kechki payt ishlatiladigan tuvaklarni ham issiq suv bilan zararlantirish maqsadga muvofiq.

**3.** Zararlanish indeksi 20% va undan yuqori bo'lgan o'choqlarda aholining asosan 14 yoshgacha bolalar yoki boshqa yuritiladigan direktiv guruhga mansub aholi guruhlarida yiliga ikki marotaba aholi orasida ommaviy degelmintizatsiya tadbirlarini amalga oshirish.

**4.** Gelmintoz bilan zararlangan bemorlar aniqlangan o'choqlarni hisobga olish.

**XULOSA:** Jamoat korxonalari va turar joylarni kanalizatsiya va toza ichimlik suvi tizimi bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini yanada oshirish. Jamiyatimizda oldi hisoblangan tashkilotlarining deyarli barcha ko'lami, ko'kalamzorlashtirilgan bog'lar, mahalla va tuman, shahr markazlashtirilgan sayilgohlar, barcha joylarda mavjud bo'lgan hiyobonlar sanitariya gigienik jihatdan talablariga javob beradigan hojatxonalarini qurish va foydalanishga topshirish, har bir hovlida axlat qutillarini o'rnatish va ularni doimiy ravishda tozalashga, chiqindilarni vaqtida olib ketilishiga erishish. Jamoat hojatxonalarida o'rindiqlar, hojatxonalarining devorlari hamda pollarini har xil ifloslangan narsalar va najas qoldiqlaridan uzluksiz va doimiy ravishda tozalashni samarali yo'lga qo'yish. Kanalizatsiya hali yo'lga qo'yilmagan mavjud bo'lmagan hojatxonalarda ma'lum sig'imga ega o'rnalar, ularning pollari va o'rindiqlarini zararsizlantirish qat'iy va m,ajburiy joriy qilish lozim.

Mevalar va sabzavotlarni yaxshilab va tozalab yuvish. Umumiy ovqatlanish korxonalari va ularda xizmat qiluvchi xodimlar ustidan doimiy ravishda tibbiy – sanitariya nazoratini amalga oshirish (yiliga 1 marotaba).

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maftuna, N. (2022). GIMENOLEPIDOZNING TARQALGANLIGI VA UNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Involta Scientific Journal*, 1(4), 203-208.

2. To'xtarov, B. E., & Nomozboyeva, M. A. Q. (2023). DEVELOPMENT OF MEASURES TO PREVENT THE SPREAD OF HYMENOLEPIDOSIS IN UZBEKISTAN. *Scientific progress*, 4(2), 52-55.
3. Мусаева О. Т., Номозбоева М. А., Халилова Б. Р. ФАКТОРЫ РИСКА ПРИ ВОЗРОСТНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 14. – С. 8-14.
4. Musayeva O., Nomozboyeva M., Khalilova B. FEATURES OF PROVIDING MEDICAL CARE TO ELDERLY AND SENILE CITIZENS //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 36-40.
5. Tuichievna, Musayeva Oltinoy, Nomozboeva Maftuna Abdukhamidovna, and Khalilova Barchinoy Rasulovna. "Risk Factors for the Development of Diseases in Old Age and their Prevention." *Research Journal of Trauma and Disability Studies* 2.3 (2023): 15-21.
6. Мусаева О. Т., Номозбоева М. А., Халилова Б. Р. Медицинская Помощь Для Людей Пожилого И Старческого Возраста В Узбекистане //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 4-8.
7. qizi Elmurodova L. X. et al. SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIYENIK AHAMIYATI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 30. – С. 67-71.
8. qizi Elmurodova L. X., Mahammadiyev B. F., Ibragimova F. C. ICHIMLIK SUVINI SAMARALI ZARARSIZLANTIRISH USULLARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 18-23.
9. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O'ZBEKISTONDA TERI LEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNING OLDINI OLIH CHORATADBIRLARI //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 42-48.
10. Maxmatmurot o'g'li S. M. et al. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA FOYDALANILADIGAN JIHOZLARGA QO'YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 128-132.
11. Baxriddin o'g'li U. F. et al. STREPTOKOKK AVLODLARIDAGI (STREPTOCOCCUS MUTANTS, STREPTOCOCCUS VIRIDANS, VEYLONELLA) BAKTERIYALARINING OG'IZ BO'SHLIG'IGA TA'SIRINI O'RGANISH //Научный Фокус. – 2024. – Т. 1. – №. 10. – С. 476-479.
12. Baxriddin o'g'li U. F. et al. BOLALARDA QANDLI DIABET KASALLIGINI UCHRASHI, SABABLARI VA PROFLAKTIKASI //JOURNAL

OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024.  
– Т. 7. – №. 2. – С. 73-76.

13. Tuichievna M. O., Abdukhamidovna N. M., Rasulovna K. B. Risk Factors for the Development of Diseases in Old Age and their Prevention //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 15-21.

14. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O'ZBEKISTONDA TERILEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNING OLDINI OLIISH CHORATADBIRLARI //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 42-48.

15. Tuichievna M. O., Elmurodova L. K., Rasulovna K. B. The Main Age-Related Diseases and Conditions Common among Elderly Men and Women //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 37-43.

16. Tuxtarov B. E. et al. Scientific progress. 2023. № 2 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-terileyshmaniozining-tarqalishi-va-uning-oldini-olish-chora-tadbirlari> (дата обращения: 30.03. 2023).

17. Мусаева О. Т., Элмуродова Л. Х., Халилова Б. Р. Старение Как Область Научных Исследований И Организация Гериатрической Медицинской Помощи //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 317-322.

18. Yunus o'g'li F. S. et al. O'ZBEKISTONDA GIMENOLEPIDOZ KASALLIGINING TARQALGANLIGI VA UNING ZAMONAVIY EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 18. – №. 1. – С. 172-176.

19. Furkatjonovna, N. H. (2024). THE PREVALENCE OF GEMINOLEPIDOSIS AMONG ADULT AND YOUNG POPULATIONS AND ITS EPIDEMIOLOGICAL FEATURES. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 18(1), 182-186.

20. Номозбоева М. А., Файзиев С. Ю., Нормуродова Х. Ф. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ГИМЕНОЛЕПИДОЗА В УЗБЕКИСТАНЕ, ЕГО СОВРЕМЕННЫЕ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 18. – №. 1. – С. 177-181.